



INGILIZ TILI O'ZLASHTIRISH DARAJASINI ANIQLASHDA ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH

Maliko'va Sevinch Baxodir qizi

A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti Doktorantura va magistratura bo'limi "Kattalar ta'limi" ixtisosligi magistri
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19044365>

Annotatsiya

Mazkur tadqiqot ishida ingliz tili darslarida o'quvchilarning bilim darajasini aniqlashning zamonaviy yondashuvlari, baholashning ilmiy-metodik asoslari hamda o'quvchilar kompetensiyasini o'lchash uchun qo'llaniladigan usul va vositalar tahlil qilingan. Mazkur ishda formativ va summativ baholashning afzalliklari, shuningdek, xalqaro standartlar (CEFR) asosida bilim darajasini aniqlashning amaliy imkoniyatlari ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari ingliz tili darslarida baholash jarayonini takomillashtirish o'qituvchi faoliyatining samaradorligini oshirishi mumkinligini asoslaydi batafsil tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Ingliz tili ta'limi, bilim darajasi, baholash, formativ baholash, summativ baholash, CEFR, diagnostika, ko'nikmalar, kompetensiya.

Annotation: English language education, level of knowledge, direction, formative production, summative production, CEFR, diagnostics, improvement, competence. lessons, scientific and methodological foundations of assessment, and methods and tools used to measure student competence are analyzed. This work shows the advantages of formative and summative assessment, as well as practical possibilities for determining the level of knowledge based on international standards (CEFR). The results of the study substantiate that improving the assessment process in English lessons can increase the effectiveness of teacher activity.

Keywords: English language education, level of knowledge, direction, formative production, summative production, CEFR, diagnostics, improvement, competence.

Аннотация: В работе анализируются преподавание английского языка, уровень знаний, направления, формирующее и итоговое оценивание, общеевропейская система уровней владения иностранным языком (CEFR), диагностика, совершенствование, компетентность, а также научно-методические основы оценивания и методы и инструменты, используемые для измерения компетентности учащихся. В данной работе показаны преимущества формирующего и итогового оценивания, а также практические возможности определения уровня знаний на основе международных стандартов (CEFR). Результаты исследования





подтверждают, что совершенствование процесса оценивания на уроках английского языка может повысить эффективность деятельности учителя.

Ключевые слова: преподавание английского языка, уровень знаний, направление, формирующее оценивание, итоговое оценивание, CEFR, диагностика, совершенствование, компетентность.

Ingliz tili ta'limida bilim darajasi tushunchasi. Bilim darajasi - bu o'quvchilarning ingliz tili bo'yicha egallagan grammatik, leksik va nutqiy ko'nikmalarining amaliy darajasini ko'rsatuvchi integrativ ko'rsatkichdir. U tinglab tushunish, o'qish, gapirish va yozish ko'nikmalarining birgalikda namoyon bo'lishi bilan belgilanadi. Zamonaviy talablarga ko'ra, bilim darajasi faqat test natijalari bilan emas, balki kommunikativ kompetensiya bilan baholanadi. Bilim darajasini aniqlashning yondashuvlari. Bugungi kunda ingliz tili darslarida o'quvchilarning bilimni aniqlash uchun ikki asosiy yondashuv qo'llaniladi: Formativ baholash — o'quv jarayonining davomida o'quvchining rivojlanishini kuzatish va tahlil qilish. Bu yondashuv xatolarni vaqtida ko'rsatish va individual yutuqlarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Formativ baholashning roli. Formativ baholash o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida talabalarning kundalik rivojlanishini kuzatish imkonini beradi. Ingliz tilida bu, ayniqsa, speaking, listening va writing ko'nikmalarini shakllantirishda samarali hisoblanadi. O'quvchilarga beriladigan muntazam, aniq va tushunarli feedback ularning xatolarini o'z vaqtida tuzatishiga, o'z o'qish strategiyalarini mustahkamlashiga yordam beradi. Formativ baholashning moslashuvchanligi uni zamonaviy til o'qitish metodlarining ajralmas qismiga aylantiradi.

Summativ baholash — chorak, yarim yillik yoki yakuniy nazorat sifatida amalga oshiriladi. U o'quvchining umumiy tayyorgarlik darajasini baholaydi va reytingga ta'sir qiladi. Bu ikki yondashuv bir-birini to'ldiruvchi tizim sifatida qaraladi. Summativ baholashning o'rni. Summativ baholash esa o'quvchining ma'lum bir davr davomida erishgan yakuniy natijasini ko'rsatadi. CEFR mezonlariga asoslangan summativ baholash til kompetensiyasining xalqaro standartlarga mos ravishda aniqlanishini ta'minlaydi. Mazkur baholash turi o'qituvchi uchun ham, ta'lim muassasasi uchun ham rasmiy hisobot vazifasini bajaradi. Zamonaviy baholash vositalari. Ingliz tili darslarida baholashni samarali tashkil etish uchun quyidagi vositalardan foydalanish tavsiya etiladi:

- Diagnostik testlar — o'quvchining boshlang'ich darajasini aniqlash
- Elektron test platformalari (Google Forms, Quizizz)
- Speaking rubrics — og'zaki nutqni mezon asosida baholash
- Listening materiali asosidagi topshiriqlar





- Writing checklist — yozma ishlar sifatini aniqlash mezonlari
- Kuzatuv varaqalari — dars jarayonidagi faollikni baholash

Ushbu vositalar nafaqat til bilimining miqdoriy ko'rsatkichlarini, balki sifat jihatlarini ham aniqlash imkonini beradi. Ingliz tili darslarida qo'llanilayotgan zamonaviy vositalar — elektron test tizimlari, mobil ilovalar, adaptiv testlar, audio-video asosidagi topshiriqlar — baholash jarayonini tezkor, aniq va shaffof qiladi. Shuningdek, rubrikalar asosida baholash o'quvchining har bir til ko'nikmasini mezonlar bo'yicha individual o'lchash imkonini beradi. CEFR darajalariga asoslanga baholash. Yevropa til kompetensiyalari umumiy ramkasi (CEFR) ingliz tilidagi tayyorgarlik darajasini 6 bosqichda (A1–C2) baholaydi. Bu tizim o'quvchilarni xalqaro standartga mos ravishda baholashga, ularda amaliy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. CEFR asosidagi baholash o'quvchining har bir ko'nikmasini alohida mezonlar bo'yicha tahlil qilishga imkon beradi.

Xulosa:

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz tili darslarida o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash jarayoni faqat baho qo'yish bilan cheklanib qolmay, balki o'quvchilarni rivojlantirishga qaratilgan ko'p qirrali pedagogik jarayon hisoblanadi. Formativ baholashning muntazam qo'llanilishi o'quvchilarda refleksiya, o'z-o'zini nazorat qilish va til materialini ongli ravishda o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantiradi. Summativ baholash esa o'quvchining umumiy tayyorgarlik darajasini xalqaro talablar asosida aniqlashga xizmat qiladi. Zamonaviy raqamli vositalarning baholash jarayoniga integratsiyalashuvi o'qitishning sifat ko'rsatkichlarini oshiradi, individual o'qitish imkoniyatlarini kengaytiradi va o'quvchilar motivatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, zamonaviy baholash texnologiyalarini metodik jihatdan to'g'ri qo'llash ingliz tili ta'limida yuqori samaradorlikka erishishning muhim omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brown, H. D. Language Assessment: Principles and Classroom Practices. Pearson, 2018.
2. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching. Longman, 2015.
3. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages (CEFR). 2020.
4. Hughes, A. Testing for Language Teachers. Cambridge University Press, 2017.
5. Fulcher, G. Practical Language Testing. Routledge, 2015.
6. Richards, J. C., & Schmidt, R. Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics. Routledge, 2010.





7. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi. “Chet tillarda kompetensiyalarni baholash mezonlari.” Metodik qo‘llanma, 2021.

